
Buvayda tumani prokurori Ziyovuddin Sulaymonov tomonidan 2-sektor hududidagi Urganji MFYda fuqarolar va tadbirkorlar uchun ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Ommaviy sayyor qabul davomida 11 nafar fuqarolarning murojaatlari tinglanib, shundan 7 nafarining murojaatlari joyida ijobiy hal etildi, qolgan 4 nafari o'rganib qonuniy hal etish uchun tegishli tashkilotlarga yuborildi.

Shuningdek, tuman prokurori tomonidan sektor hududidagi 7-sonli DMTTning moddiy-texnik xolati, tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati o'rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi. Bundan tashqari, Urganji MFYda joylashgan "Bobosamosiy" qabristoni ko'zdan kechirilib, qabriston hududini obodonlashtirish, manzarali daraxtlar o'tqazish bo'yicha bir qator tavsiyalar berildi.

Buvayda tuman hokimligi Axborot xizmati□

<https://t.me/+KAbEvOZiupA5N2Yy>

2023-10-17 09:56:09